



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	117 889 100,6 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	113 515 100,7 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda)	10 284 111,3 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - avgust oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,7** foizga kamaydi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




5,7 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




7,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




7,8 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **9,5** foizga oshdi







Xususiy korxonalar



10,3 foizga kamaydi






Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 – yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - sentabr holatiga ko'ra 3,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 4,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 4,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - avgust oyilarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 333 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga yoki 2,0 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - sentabr holatiga ko'ra 9,1 mingtani tashkil etib, ulardan 8,9 mingtasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,1 mingtaga yoki 12,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - avgust oylarida 1 239 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - avgust oylarida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 759	780	979
Qozog'iston Respublikasi	885	319	566
Ozarbajon Respublikasi	191	56	135
Ukraina Respublikasi	155	73	82
Qirg'iz Respublikasi	154	48	106
Tojikiston Respublikasi	121	49	72
Turkmaniston Respublikasi	61	20	41
Belarus Respublikasi	120	42	78
Armaniston Respublikasi	32	15	17
Moldova Respublikasi	21	7	14

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – avgust holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,9 %, Qozog'iston Respublikasi 9,6 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	8 926	3 225	5 701
tumanlar:			
Uchtepa	308	97	211
Bektemir	200	101	99
Yunusobod	1073	408	665
Mirzo Ulug'bek	1185	426	759
Mirobod	1508	442	1066
Shayxontohur	635	270	365
Olmazor	450	216	234
Sirg'ali	313	125	188
Yakkasaroy	1429	454	975
Yashnobod	743	301	442
Yangihayot	132	54	78
Chilonzor	950	331	619

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 508 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,0 %), Yakkasaroy – 1 429 ta (16,7 %), Mirzo Ulug'bek – 1 185 ta (13,3 % hamda Yunusobod tumanlarida 1 073 tani (12,0 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Yangihayot 132 tani (1,5 %), Bektemir 200 ta (2,2 %), hamda Uchtepa – 308 ta (3,5 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

15





2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 117 889 tani tashkil etib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,7 %), Yunusobod – (12,6 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,7 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,2 %), Sirg'ali – (5,1 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,2 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-avgust oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 10284 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,5 %), Yunusobod – (12,2 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Olmazor – (9,2 %), Shayxontohur – (9,4 %), Yashnobod – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,1 %), Uchtepa – (7,7 %), Sirg'ali – (5,5 %), Yangihayot (3,3 %) hamda Bektemir – (2,5 %) tumanlarida tashkil etgan.







2022 - yilning yanvar - avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 333 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (13,8 %), Olmazor – (12,6 %), Yunusobod – (13,4%), Uchtepa – (11,8 %), Yashnobod – (10,1%), Chilonzor – (7,8 %), Sirg'ali – (7,4 %), Yangihayot – (6,4 %), Mirobod – (4,7 %) Bektemir (4,4 %) Yakkasaroy – (4,4 %), hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (3,0 %) ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31